



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 181-191 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKDA INVESTITSIYAVIY LOYIHALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI



Ollokulova Feruza Mansurovna
Termiz davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyaviy loyihalar samaradorligini baholashning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida DXSh loyihalarining iqtisodiy mohiyati, moliyalashtirish mexanizmi hamda investitsion samaradorlikni baholash usullari tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan DXSh loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy jihatlari o'rganilib, investitsion resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy risklarni kamaytirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, investitsiyaviy loyiha, investitsion samaradorlik, moliyaviy risklar, infratuzilma loyihalari, moliyalashtirish mexanizmi, moliyaviy instrumentlar, korporativ boshqaruv.

Аннотация: В данной научной статье исследованы теоретико-методологические основы оценки эффективности инвестиционных проектов на основе государственно-частного партнерства. В ходе исследования были проанализированы экономическая сущность проектов ГЧП, механизмы их финансирования и методы оценки инвестиционной эффективности. Кроме того, изучены финансово-экономические аспекты проектов ГЧП, реализуемых в системе дошкольного образования Узбекистана, а также разработаны научные выводы по эффективному использованию инвестиционных ресурсов и снижению финансовых рисков.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, инвестиционный проект, эффективность инвестиций, финансовые риски, инфраструктурные проекты, механизм финансирования, финансовые инструменты, корпоративное управление.

Annotation: This scientific article examines the theoretical and methodological foundations for evaluating the effectiveness of investment projects based on public-private partnership (PPP). During the study, the economic essence of PPP projects, financing mechanisms, and methods for assessing investment efficiency were analyzed. In addition, the financial and economic aspects of PPP projects implemented in the preschool education system of Uzbekistan were studied, and scientific conclusions aimed at the effective use of investment resources and reduction of financial risks were developed.

Key words: *public-private partnership, investment project, investment efficiency, financial risks, infrastructure projects, financing mechanism, financial instruments, corporate governance.*

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri yirik ijtimoiy va iqtisodiy loyihalarni davlat-xususiy sheriklik (DXSh) munosabatlari asosida moliyalashtirishni tashkil etish hisoblanadi. Aytib o'tish kerakki, globallashtirish va barqaror rivojlanishga o'tish sharoitida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash investitsion faollikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, infratuzilma, energetika, ta'lim va ijtimoiy sohalarida investitsiyalarni jalb etishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) O'zbekiston Respublikasida investitsion faollikni ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi. DXSh munosabatlarini rivojlantirish yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish sharoitida DXSh munosabatlarini rivojlantirishda meyoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish rivojlangan mamlakatlarning DXShni rivojlantirishning ilg'or tajribalarini amaliyotga joriy etish borasida keng ko'lamli, tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, DXSh loyihalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - moliyaviy-iqtisodiy qarorlarni samarali qabul qilish, investitsiya resurslarini ustuvor yo'nalishlarga maqsadli yo'naltirish, moliyaviy va institutsional risklarni minimallashtirish hamda loyihalarning barqaror daromadlilikini ta'minlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, DXSh doirasida moliyaviy-investitsion strategiyalarni takomillashtirish nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ayrim DXSh loyihalarida investitsion rejalashtirishning yetarli darajada rivojlanmaganligi, risklarni boshqarishning tizimli yondashuvlari to'liq shakllanmaganligi hamda investitsion qarorlar qabul qilishda ilmiy-uslubiy asoslarning yetishmasligi kuzatilmoqda. Bu holat DXSh loyihalarining moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli samaradorligini ta'minlashda ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida investitsiyaviy samaradorlikni baholashning zamonaviy nazariy-uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurati ortib bormoqda. Xususan, investitsiyaviy loyihalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik me'yori (IRR), diskontlangan qoplash muddati (DPP), foydalilik indeksi (PI) kabi an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, riskka moslashtirilgan baholash usullari, stsenariy tahlili, sezgirlik tahlili hamda ekonometrik modellashtirish vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki DXSh loyihalari uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lib, ularning natijadorligi makroiqtisodiy muhit, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, valyuta kurslari, institutsional omillar va davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Xalqaro ilmiy-amaliy tadqiqotlardan ma'lumki, davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri investitsiyaviy resurslarni samarali boshqarish hamda ulardan foydalanish bo'yicha iqtisodiy jihatdan

asoslangan optimal qarorlar qabul qilish hisoblanadi. Ayniqsa, DXSh loyihalarida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, risklarni oqilona taqsimlash va investitsion mablag'lardan samarali foydalanish loyihalarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy natijaviyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

DXSh mohiyatini yoritishda, mantiqan dastlab unga berilgan iqtisodiy ta'riflarni tahlil etish maqsadga muvofiq. Iqtisodchi olimlari Hodge G. va Greve C. larning fikriga ko'ra, "DXSh davlat bilan xususiy sektor organlari o'rtasidagi tuzilgan kelishuv bo'lib quydagi hususiyatlarga ega: davlat aktivlari yoki davlatga tegishli bo'lgan mulklarni boshqarishga doir xususiy sektor o'rtasida o'zaro manfaatli shartnomani imzolanishi, davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni ko'zlagan holda xususiy sektor tomonidan investitsiyalar va zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini joriy etish majburiyatini zimmasiga olishi; shartnomalarning aniq muddatlarga tuzilishi; operatsion va moliyaviy risklar xususiy sektor bilan davlat organlari o'rtasida taqsimlanishi; oldindan kelishilgan parametrlar bo'yicha samarali natijalar va ijtimoiy maqsadlarga erishishni ta'minlash" [2]. Grimsey D., Lewis M.K. tomonidan bildirilgan fikrga ko'ra, "davlat-xususiy sherikligi davlat xizmatlarini yaxshilash yoki davlat sektori aktivlarini boshqarish uchun xususiy sektor bilan davlat sektori kapitallaridan foydalanishni birlashtiradi. Davlat xizmatlarining natijalariga etibor qaratish asosida xususiy sektor davlat sektori risklarini boshqarishda davlat sektori xaridlari orqali erishilgandan nisbatan mukammal va tejamkor yondashuvni taklif qiladilar" [3]. Almarri K., Blackwell P. tomonidan "DXSh munosabatlari mamlakat ichki, davlatlar o'rtasida amalga oshirilishi, bir qator ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi. COVID-19 pandemiyasi sharoitida, davlatlar o'rtasida DXSh munosabatlarini joriy etilishi pandemiya yoki boshqa ekologik-iqlimiy muammolarini hal etish imkonini berdi. Davlat sektori xususiy innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan asosiy kapital yoki moliyaviy sharoitlarni ta'minlash imkoniyatiga ega. Ushbu innovatsiyalar kambag'al mamlakatlarni yetarlicha vaksinalar bilan ta'minlash, keng ko'lamli emlash kampaniyasidagi logistik to'siqlarni yengib o'tish asosida COVID-19 pandemiyasi sharoitida barham berish uchun muhim ahamiyatga ega" [4]. DXSh davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning maxsus mexanizmi bo'lib, ushbu o'zaro hamkorlikning uzoq muddatga mo'ljallanishi, mulk huquqlarini davlat ishtirokidagi an'anaviy shartnomalarga nisbatan boshqacha shaklda qayta taqsimlash imkoniyati, jumladan autsorsing yordamida ijtimoiy mahsulot va xizmatlarni yaratishda muhim o'rin egallaydi [5].

DXSh orqali davlat, byudjetdan moliyalashtirishni qisqartirish va xususiy sektor tomonidan katga miqdordagi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, ikkinchidan, davlat tomonidan ichki imtiyozlarni berish asosida xorijiy kreditlar jalb qilish uchun kafolat berish amaliyotidan voz kechishi imkoniyati yaratiladi [6]. Yuqorida keltirilgan tarifda davlatning xarajatlarini asosiy qismini tashkil qiluvchi ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yukini kamaytirish bilan bir qatorda hukumat tomonidan xorijdan jalb qilinadigan qarzar bo'yicha beriladigan kafolatdan voz kechish imkonini berishi alohida qayd etilmoqda. Ushbu yondavshuv milliy valyutani devalvatsiya darajasini kamaytirish xorijiy qarzar portfelida bir turdagi valyutaga bo'lgan bog'liqlikni

kamaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha "DXSh" atamasiga berilgan ta'riflar o'rtasidagi ma'lum farqlarga qaramay, DXSh davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik shaklini ifodalaydi, ma'lum loyiha ishtirokchilari o'rtasida xavf va mas'uliyatni taqsimlashni nazarda tutadi. DXSh doirasida davlat va xususiy sektor ustun darajada yo'llar, ko'priklar, aeroportlar, turar-joy majmualari, sog'liqni saqlash va ta'lim muassasalarini qurish bo'yicha infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtiradi [7]. Yuqorida keltirilgan tariflarda DXShning ayrim xususiyatlari davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasidan kelib chiqqan holda bir biridan farqlansa ham, ushbu mexanizmning maqsadi davlat va korporativ tuzilmalar o'rtasidagi moliyaviy natijalarga erishish uchun risklarni taqsimlash va kapitalni birlashtirish hisoblanadi.

G.Karlibayeva tomonidan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirishga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiya ishida, oliy ta'lim muassasalarida davlat-xususiy sherikchilik asosida endowment fondlarini tashkil qilish va rivojlantirish orqali ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari o'rganilgan va ushbu jarayonda DXShni amalga oshirish tartibi atroflicha ochib berilgan [8]. T.Karlimuratov tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqarish va ta'lim sifatini oshirish masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan. Jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizmi muammolarni pedagogik monitoring qilish va tashxislash asosida pedagogik korreksiyalash asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan [9].

Yuqorida keltirilgan ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik mexanizmi bo'lib, unda investitsion resurslarni birlashtirish, risklarni o'zaro taqsimlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish asosiy maqsad hisoblanadi. Mazkur mexanizm davlatning budjet xarajatlarini optimallashtirish, xususiy sektorning moliyaviy va innovatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish, infratuzilmaviy loyihalarni jadallashtirish hamda aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bizningcha, "davlat-xususiy sheriklik - bu davlat organlari va xususiy sektor subyektlari o'rtasida investitsiyaviy, moliyaviy va institutsional resurslarni birlashtirish, risk va majburiyatlarni o'zaro taqsimlash asosida uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan hamkorlik mexanizmi bo'lib, u investitsion samaradorlikni oshirish, davlat xarajatlarini optimallashtirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi", deb hisoblaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot jarayonida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyaviy loyihalar samaradorligini baholashning nazariy-uslubiy jihatlarini o'rganishga qaratilgan mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro moliya institutlari tavsiyalari hamda O'zbekiston Respublikasida DXSh munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik tahlil,

taqqoslash, mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, tizimli yondashuv, iqtisodiy-matematik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish hamda investitsion faollikni oshirish sharoitida davlat-xususiy sheriklik mexanizmining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy yondashuvlardan kelib chiqib, davlat-xususiy sheriklikning quyidagi asosiy xususiyatlarini tasniflash mumkin:

- davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarining mavjudligi;
- investitsion resurslar va kapital mablag'larini birlashtirish asosida loyihalarni moliyalashtirish;
- moliyaviy, operatsion va institutsional risklarning o'zaro taqsimlanishi;
- infratuzilma va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilganligi;
- davlat xarajatlari va budjet yukini qisqartirish imkoniyatining mavjudligi;
- xususiy sektorning innovatsion boshqaruv tajribasi va zamonaviy texnologiyalarini joriy etishga asoslanishi;
- investitsion loyihalarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ta'minlashga qaratilganligi;
- davlat xizmatlari sifatini oshirish va aholining ijtimoiy farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishi;
- loyiha ishtirokchilari manfaatlarini muvozanatini ta'minlash asosida barqaror iqtisodiy rivojlanishga yo'naltirilganligi;
- investitsion muhit jozibadorligini oshirish va xususiy investitsiyalar oqimini kengaytirishga xizmat qilishi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi davlat va xususiy sektorning moliyaviy-iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtirish orqali yirik investitsiyaviy loyihalarni samarali amalga oshirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim institutsional vositalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri maktab va ma'ktabgacha ta'lim sohasi hisoblanadi. Keyingi yillarda ushbu sohani rivojlantirish jumladan, DXSh munosabatlarini yo'lga qo'yish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sohadagi DXSh bo'yicha dastlabki qadamlardan biri, "2018 yil 25 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 475-sonli qarori" hisoblanadi. Ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 100,0 mln AQSh dollarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini moliyalashtirish jamg'armasining maxsus hisob raqamiga o'tkazish belgilangan. Shuningdek, 2018 yil 5 aprelga qadar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etish maqsadida bo'sh turgan yer uchastkalarini va bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini

bepul asosda olgan tadbirkorlar bilan davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim tuzishga ruxsat berildi.

O'zbekiston Respublikasini Rivojlantirish davlat dasturlarini moliyalashtirish jamg'armasiga 2018 yil 28 iyungacha bo'lgan muddatda tadbirkorlarga 15 yil muddatga foizsiz asosda, shu jumladan, uch yillik imtiyozli davr bilan imtiyozli kredit berish uchun kredit liniyalari ochish to'g'risida bitimlar tuzish vazifasi yuklandi. Ushbu hujjatga muvofiq, maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar jumladan, DXSh bo'yicha belgilangan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlar soni 33942 taga yetkazildi.

1-jadval

«2024-2028 yillarda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish» loyihasining TIK (mln AQSh. dollarida)¹

T/r	Ko'rsatkich nomi	Jami	shu jumladan				
			ITB qarz mablag'lari	IT kredit mablag'lari	OPEK kredit mablag'lari	Xususiy sheriklar mablag'lari	Respublika byudjeti mablag'i
1.	Loyihaning umumiy qiymati	66,90	27,54	2,46	20,00	12,50	4,40
2.	Komponent-1. MT (Maktabgacha ta'lim) qamrovini oshirish	60,08	26,58	0,00	20,00	12,50	1,00
3.	Komponent - 1.1 DXSh asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo yetish	59,08	26,58	0,00	20,00	12,50	0,00
4.	Komponent - 1.2 MT muqobil dasturini joriy yetish	1,00	0,00	0,00	0,00	0,00	1,00
5.	Komponent - 2 MT sifatini oshirish	5,50	0,00	2,30	0,00	0,00	3,20
6.	Komponent - 2.1 MT dasturi, pedagogika va kontekstli o'qitish va o'yin materiallarini takomillashtirish	1,00	0,00	0,00	0,00	0,00	1,00
7.	Komponent - 2.2	2,15	0,00	2,15	0,00	0,00	0,00

¹ <https://lex.uz/docs/7120156>

	MT mutaxassislarining salohiyatini oshirish						
8.	Komponent - 2.3 MTni boshqarishning axborot tizimini takomillashtirish	1,00	0,00	0,00	0,00	0,00	1,00
9.	Komponent - 2.4 MT tizimida monitoring va baholash ishlarini amalga oshirish	1,20	0,00	0,00	0,00	0,00	1,20
10.	Komponent - 2.5 YuNISEF xalqaro tashkiloti bilan hamkorlik	0,15	0,00	0,15	0,00	0,00	0,00
11.	Komponent-3. Loyihani amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash	0,42	0,42	0,00	0,00	0,00	0,00
12.	Moliyaviy audit xizmatlar	0,08	0,08	0,00	0,00	0,00	0,00
13.	Texnik ko'rib chiqish va monitoring	0,44	0,44	0,00	0,00	0,00	0,00
14.	Ko'zda tutilmagan xarajatlar	0,38	0,02	0,16	0,00	0,00	0,20

Agar 2017 yilda maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 27 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2024 yilda 76 foizga yetkazildi. «O'zbekiston-2030» strategiyasida belgilangan maqsadli vazifalarga muvofiq mamlakatda ushbu ko'rsatkichni 2026 yilgacha 80 foizga, 2030 yilga borib, 100 foizga yetkazish reja qilingan. Ushbu holatni mamlakatimizda bu borada dunyodagi yetakchi davlatlardan biriga aylanish imkonini beradi. 2024 yilning yanvar holatiga ko'ra maktabgacha ta'lim sohasida, Davlat-xususiy sherikchilik asosida 7 100 o'rinli 71 ta, oilaviy shaklda 116 998 o'rinli 4 402 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil yetildi. 26 890 o'ringa ega bo'lgan 168 ta (53 ta yangi qurilish va 113 ta rekonstruksiya, 2 ta mukammal ta'mirlash) obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlanib, foydalanishga topshiriladi. Tahlillar ko'rsatilishicha mamlakatimizda DXSh asosida maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar soni 50 dan ortiqni tashkil etadi.

Bular orasida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 25 sentyabrdagi "Islom taraqqiyot banki va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida «2024-2028 yillarda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 604-son qarorini alohida keltirish mumkin. Qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi


Hukumati va Islom taraqqiyot banki (ITB) o'rtasida jami 30,0 mln AQSh dollari miqdorida qarz va kredit ajratish to'g'risidagi bitimlar imzolangan bo'lib, OPEK xalqaro taraqqiyot jamg'armasi (OPEK jamg'armasi) tomonidan 5 yil imtiyozli davrni o'z ichiga oluvchi 20 yil muddatga 20,0 mln AQSh dollari miqdorida qarz ajratilishi to'g'risidagi qaror qabul qilingan. Shuningdek, «2024-2028 yillarda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish» loyihasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (1-jadval).

O'zbekistonda DXSh munosabatlarini rivojlantirishdagi muhim hujjatlardan yana biri, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-316-sonli qarori" hisoblanadi. Qarorga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun imtiyozli kreditlar loyiha tashabbuskorlariga quyidagi tabaqalashtirilgan foiz stavkalarida va shartlarda ajratilishi belgilab berildi:

Toshkent shahrida - 10 yil muddatga, shu jumladan 2 yillik imtiyozli davr bilan yillik 12 foiz stavka bo'yicha; Nukus shahri, viloyatlar ma'muriy markazlari va viloyatga bo'ysunuvchi shaharlarda - 10 yil muddatga, shu jumladan 2 yillik imtiyozli davr bilan yillik 8 foiz stavka bo'yicha; tumanlarda - 10 yil muddatga, shu jumladan 2 yillik imtiyozli davr bilan yillik 5 foiz stavka bo'yicha. Shuningdek, o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan xususiy sheriklar bilan tuzilgan bitimlarni bosqichma-bosqich bekor qilish choralarini ko'rish bo'yicha vazifalar belgilab berilgan.

Alohida qayd etish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2024 yil 30 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-son qarori "O'zbekiston-2030" strategiyasida DXSh bo'yicha belgilangan vazifalar bilan uzviy bog'liqdir. Qarorga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik loyihalariga 2030-yilga qadar kamida 30 mlrd AQSh dollari miqdorida xususiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadli ko'rsatkichini ta'minlash, hududlarda barqaror iqtisodiy o'sish uchun hududlarda zarur bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, elektr energiyasini ishlab chiqarishda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatli tajribani boshqa sohalarga tatbiq etish belgilangan".

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va energetika vazirligi bilan birgalikda xalqaro yekspertlar va xorijiy maslahatchilarni keng jalb etgan holda DXSh tamoyillari asosidagi loyihalar bo'yicha davlat tomonidan qabul qilinadigan majburiyatlar (sotib olish yoki to'lab berish) va beriladigan tasdiq xatlarining (Comfort letter) yuqori chegarasini o'rnatishning xalqaro andozalarga mosligi va bu boradagi xorijiy tajriba yuzasidan o'rganishlarni tashkil etish hamda 2026-yil oxirigacha o'rganish yakuni bo'yicha berilgan tavsiyalar asosida amaldagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi belgilangan. 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalarni tarmoqlar kesimidagi taxlili ko'rsatilishicha ta'lim tizimiga ajratilayotgan mablag'lar 4706 mln. AQSh dollarini tashkil yetmoqda, jumladan maktabgacha ta'limga 410 mln. AQSh dollar, maktab ta'limga 4117 mln AQSh dollar, oliy ta'limga 176 mln AQSh dollari ajratish ko'zda tutilgan (1-rasm).



1-rasm. 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalarni sohalar kesimidagi tahlili (mln. AQSh doll.)²

1-rasm ma'lumotlari tahlili ko'rsatishicha, 2024-2030 yillarga mo'ljallangan loyihalar tarkibida salmoqli mablag' ajratiladigan soha energetika sohasi hisoblanadi. 2018-2024 yillarda energetika tizimni isloh qilish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Jumladan, yenergiya resurslari narxlarini bozor mexanizmi asosida shakllantirishdan boshlab, tejamkor texnologiyalar va aholini uzluksiz elektr-energiya bilan ta'minlashgacha bo'lgan bosqichni o'z ichiga oladi. Energetika tizimida ohirgi yillarda DXSh bo'yicha amalga oshirilgan yeng yirik loyihalar sifatida quyidagilarni alohida qayd yetish kerak. "2023 yilda ilk bor 100 foiz to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan, Karmana va Nurobod tumanlarida umumiy quvvati 200 megavattlik quyosh stansiyalari barpo etilib, o'tgan davrda ular 1 milliard kilovatt soat "yashil" yelektr yenergiyasini ishlab chiqargan.

Olib borilgan tahlillar natijasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish va investitsion faollikni oshirishning muhim institutsional vositalaridan biri ekanligi aniqlandi. DXSh loyihalarida investitsion resurslarni samarali boshqarish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda risklarni oqilona taqsimlash loyihalarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan DXSh loyihalari tahlili ushbu mexanizm orqali davlat budjeti xarajatlarni optimallashtirish, xususiy

² <https://lex.uz/docs/-7089556> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

investitsiyalar oqimini kengaytirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi davlat va xususiy sektor o'rtasida investitsion resurslar, risk va majburiyatlarni o'zaro taqsimlash asosida infratuzilmaviy hamda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishning samarali institutsional mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Mazkur mexanizm iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini modernizatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish va davlat byudjeti yuklamalarini qisqartirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalar tahlili ushbu mexanizm orqali xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish va aholining ijtimoiy farovonligini yuksaltirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi. Shuning uchun, DXSh loyihalarini moliyalashtirish va ularning samaradorligini baholashning zamonaviy ilmiy-uslubiy mexanizmini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini baholashda "Value for Money" (VfM), "Public Sector Comparator" (PSC), "Cost-Benefit Analysis" (CBA) kabi kompleks yondashuvlardan keng foydalanilmoqda. Mazkur yondashuvlar loyihaning nafaqat moliyaviy samaradorligini, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ham kompleks baholash imkonini beradi. Ayniqsa, infratuzilma va ijtimoiy soha loyihalarida davlat hamda xususiy sektor manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, budjet xarajatlarini optimallashtirish, fiskal risklarni kamaytirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda ushbu usullar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan institutsional va normativ-huquqiy mexanizm izchil takomillashtirilmoqda. Xususan, DXSh sohasiga oid qonunchilik bazasining shakllantirilishi, maxsus vakolatli institutlarning tashkil etilishi hamda investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlar yirik investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, amaldagi DXSh loyihalarini tanlash, moliyalashtirish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholashda yagona ilmiy-uslubiy yondashuvning yetarli darajada shakllanmaganligi mazkur yo'nalishda zamonaviy baholash mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida investitsiyaviy samaradorlikni baholashning zamonaviy nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish hamda risklarni kompleks baholashga asoslangan amaliyotni joriy etish DXSh loyihalarining moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, investitsion qarorlarni qabul qilishda iqtisodiy-matematik modellar, sezgirlik va stsenariy tahlili, riskka moslashtirilgan baholash usullaridan foydalanish loyihalarning samaradorligini oshirish, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish hamda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli

«2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni.

2. Hodge G., Greve C. On Public-Private Partnership Performance: A Contemporary Review. *Public Works Management & Policy*, 22(1), 2017, p. 55-78. <https://doi.org/10.1177/1087724X16657830>

3. Grimsey, D., Lewis, M.K. *Public Private Partnerships: The Worldwide Revolution in Infrastructure Provision and Project Finance*. Edward Elgar Publishing. 2017, p. 39-47.

4. Almarri K., Blackwell P. Improving risk sharing and investment appraisal for PPP procurement success in large green projects. *Built Environment Project and Asset Management*, 2024, 4(4), p. 335–351.

5. Ménard C. The economics of hybrid organization//*Journal of Institutional and Theoretical Economics*. – 2004. – № 3. – p. 345–376.

6. Князев Ю.К. Новые возможности государственно-частного партнерства в кризисный период//*Экономическая безопасность*. – 2022. – Том 5. – № 4. – С. 1679–1692. doi: 10.18334/ecsec. 5.4.116208

7. Погодина Т.В., Мингазов Р.И. Формы государственно-частного партнерства и их особенности при реализации инвестиционных проектов//*Инновации и инвестиции*. № 4, 2023.

8. Karlibayeva G.X. “Oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini moliyalashtirish va monitoringini amalga oshirish” mavzusida PhD dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2023 y.

9. Kalmuratov T.N. “Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish” mavzusida PhD dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2023 y.

10. Palanisamy Manigandan, Md Shabbir Alam, Muntasir Murshed, Ilhan Ozturk, Sumeyya Altuntas, Mohammad Mahtab Alam, Promoting sustainable economic growth through natural resources management, green innovations, environmental policy deployment, and financial development: Fresh evidence from India, *Resources Policy*, Volume 90, 2024.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

